


2021- yilning yanvar-iyul oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari

1606,1
mlrd. so‘m


104,2 %

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatida jami **1606,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlari tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.


Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2020- yil	01.08.2021- yil	
Jizzax viloyati	1986	2132	107,4
Jizzax sh.	864	919	106,4
tumanlar:			
Arnasoy	53	62	117,0
Baxmal	73	74	101,4
G'allaorol	120	138	115,0
Sh. Rashidov	355	360	101,4
Do'stlik	58	68	117,2
Zomin	121	130	107,4
Zarbdor	92	106	115,2
Zafarobod	24	25	104,2
Mirzacho'l	46	52	113,0
Paxtakor	76	83	109,2
Forish	61	72	118,0
Yangiobod	43	43	100,0


Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.08.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (43,1 %), Sh. Rashidov (16,8 %) va G'allaorol (6,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **72,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **124,9** % bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,6** % punktga ko'paydi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,1 %), Zafarobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 4,5 %), Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,5 %) ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,7 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **4,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etgan holda **1120,1 mld. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,7 %** ni tashkil etdi yoki **413,6 mld. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **38,6** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1567,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4** % va **97,6** % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-iyul oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **83,2 %** i yoki **1336,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.




83,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **49,5 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi



3,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **914,6 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **68,4 %** ni tashkil etdi.



68,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **372,6 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi.




27,9 %



**2021- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Jizzax viloyati	1606,1	104,2	1336,8
Jizzax sh.	601,2	105,2	500,3
tumanlar:			
Arnasoy	23,4	103,7	19,5
Baxmal	53,3	107,9	44,4
G’allaorol	79,3	100,3	66,0
Sh. Rashidov	333,4	104,2	277,5
Do’stlik	49,6	101,9	41,3
Zomin	82,7	101,3	68,8
Zarbdor	59,7	102,2	49,7
Zafarobod	105,1	102,8	87,5
Mirzacho'l	31,6	109,0	26,3
Paxtakor	77,8	101,2	64,8
Forish	64,6	107,1	53,7
Yangiobod	44,4	104,8	37,0

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,2 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **25,9 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **17,4 %** punktga ko'payib, **66,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,6 %** punktga ko'payib, **30,9 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,2 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **15,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,2 %** (**14,3 %** punktga ko'payib) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,6 %** (**1,5 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **17,5 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **97,5 % (17,5 % punktga ko'payish)** ni tashkil etdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-iyul oylarida**

mldr. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	1606,1	1 330,9	182,8	92,4
Jizzax sh.	601,2	498,3	68,4	34,5
tumanlar:				
Arnasoy	23,4	19,4	2,7	1,3
Baxmal	53,3	44,2	6,1	3
G'allaorol	79,3	65,7	9	4,6
Sh. Rashidov	333,4	276,3	37,9	19,2
Do'stlik	49,6	41,1	5,6	2,9
Zomin	82,7	68,5	9,4	4,8
Zarbdor	59,7	49,5	6,8	3,4
Zafarobod	105,1	87,1	12	6
Mirzacho'l	31,6	26,2	3,6	1,8
Paxtakor	77,8	64,4	8,9	4,5
Forish	64,6	53,5	7,3	3,8
Yangiobod	44,4	36,7	5,1	2,6


*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

7

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzah shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **37,5** % i yoki **601,2** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **20,8** % i yoki **333,4** mlrd. so'm), Zafarobod tumanida ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **6,5** % i yoki **105,1** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

**Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**
Aloqa telefoni: (72) 221-53-73